



ХОЖА АХМАД ЯССАВИЙНИНГ КОМИЛ ИНСОН ХАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Isayeva G.P.

*Guliston davlat pedagogika institute
pedagogika kafedrası dotsenti*

Tayanch soʻzlar: soʻfiylik, devon, hikmat, tasavvuf, ilm, aql, eʼtiqod, maʼnaviyat, pok, halol, qanoat, sabr-toqat, saxovat, diyonat, sadoqat.

Ключевые слова: суфизм, мудрость, премудрость, мистика, наука, разум, вера, духовность, чистота, честность, довольство, терпение, щедрость, благочестие, верность.

Key words: sufism, wisdom, wisdom, mysticism, science, intelligence, faith, spirituality, pure, honest, contentment, patience, generosity, piety, loyalty.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasi taraqqiyotining bosh omillaridan biri xalqimizning tarixiy maʼdaniy merosida bor boʻlgan bunyodkor, insonparvar gʻoyalarni oʻrganib, tiklab davr ehtiyojlari nuqtai nazaridan baholab, ulardan maʼnaviyatimizni, yoshlarning maʼnaviyatini boyitish, taʼlim tizimini yanada rivojlantirishda unumli foydalanishdir. Shu nuqtai nazaridan ham buyuk ajdodlarimizdan biri Xoja Ahmad Yassaviy merosida oʻz ifodasini togan ruhiy-maʼnaviy poklik gʻoyalarni oʻrganish ham ilmiy ham ijtimoiy amaliy zaruriyatdir. Bu haqda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev maʼnaviy merosimizni alohida ehtirom bilan chuqur oʻrganish lozimligini qayta-qayta taʼkidlab shunday fikr bildirganlar: „...Ajdodlar merosini oʻrganish, buyuk madaniyatimizga munosib...“, darhaqiqat milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unitilmas hissa qoʻshgan olimu-fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan milliy meros, falsafiy qarashlarini har tomonlama oʻrganish darkor.

Usullar va adabiyotlar tahlili. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini taʼlim tizimida, ayniqsa maʼnaviy ruhiy poklik sohasidagi tutgan oʻrni juda ulkan ekanligini nazarda tutadigan boʻlsak, uni psixologik nuqtai nazardan tadqiq qilish va taʼlim tizimida inson kamolotida imon-eʼtiqodni rivojlantirish amaliyotida foydalanish yoʻllarini koʻrsatib berish bugungi kunda psixologiya fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Муаммоларни ўрганишда turli manbalarni

o'rganish va tahlil qilish, savol-javob, suhbat, anketa, pedagogik tajriba-sinov, so'rovnomalaridan foydalanadik.

Yassaviy merosi ko'pdan beri faylasuf, tarixchi, dinshunos, adabiyotshunos, ma'daniyatshunos, pedagog va psixologlarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Qator o'zbek tadqiqotchilari olimlar, adiblar tasavvuf tarixi va ta'limoti, jumladan Yassaviy tariqatini tadqiq etgan. A.Sa'diy, A.Fitrat, V.Zohidovlar tasavvuf ta'limotining o'rta asrda Sharq diniy, ma'naviy hayotiga ta'sirini ochib bergan [6]. I.M.Mo'minov, M.M.Xayrullaev, A.Zohidiylar asarlarida Yassaviy ta'limotining inson kamolotiga ta'siri masalalari keng o'rganilgan [6].

E.Rustamov, N.Komilov, I.Haqqulov, R.Nasirovlar tadqiqotlarida ta'savvuf ta'limotining ijtimoiy-tarixiy negizlari o'rganilgan[2]. V.V.Bertold, E.A.Bertels, L.I.Klimovich, M.T.Stepanyanch kabi olimlar Yassaviy ta'limotining siyosiy mohiyatini tadqiq qilganlar [1,2]. O'zbek pedagoglaridan S.Nishonova, A.Zunnunov, K.Hoshimov, U.Aleuov, Q.Yo'ldoshev, J.Hasanboev, N.Jabborov va boshqalar Ahmad Yassaviy ijodiga o'z tadqiqotlarida u yoki bu darajada murojat qilganlar [3,4,5].

Natijalar. Tarbiya turlaridan biri – namuna ko'rsatish mohiyat e'tibori bilan pedagogic ta'sir ko'rsatish usularidan sanaladi. “E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy xulq-odatlari yo'qotiladi. O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi. E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikro'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi” [2: 61].

Xoja Ahmad Yassaviy so'fiylik ta'limotining aksariyat qismi imon-e'tiqod tarbiyasiga bag'ishlangandir. Unda qirqta maqom ko'rsatilgan bo'lib, ulardan o'nta maqomi ma'rifat va ilm olishga qaratilgan bo'lib, asosan, insonning aqliy jihatdan tarbiyalanishiga ahamiyat berilgan. Ayni jihatga Ahmad Yassaviy hazratlari ham e'tiborimizni tortib, ma'rifat maqomida ilm, insonda aql va tafakkur shakllanishining poydevori ekanligini ta'kidlagan hamda bu maqom insonning axloqiy shakllanishini ham o'z ichiga qamrab oladi, deya talqin etganlar. Shuningdek, aqliy tarbiya va axloqiy shakllanish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda sharxlangan.

Tahlil. Xoja Ahmad Yassaviyning “Ma'rifat – bu avvalo fano bo'lmoq” deb ko'rsatilgan birinchi maqomida “fano” tushunchasi o'zidan va butun borliqdan kechib ilohiyatga sig'inish ma'nosini anglatadi. Har bir insonning nafsu hirsardan tozalangan musaffo yuragida ilm olishga ehtiros, ijod qilishga ishtiyoq uyg'onadi. Shu sababdan Yassaviy insonning ma'rifat manzilida Xudo mohiyatini to'la anglab ilmu axloqda komillikka yetishini, binobarin, u oriflik darajasiga ham ko'tarilishini



ta'kidlaydi. Bu bilan inson hayoti davomida murakkab kamolot yo'lini o'taydi va o'zidan yaxshi va yomon nom qoldiradi.

So'fiylikning ikkinchi maqomi “darveshlikni qabul qilmoq” deb ko'rsatiladi. Yassaviy darveshlik maqomini qirqta ekanligini ko'rsatib, “agar ularni bilib amal qilsa, darveshlik pok turur va agar bilmasa, o'rganmasa, darveshlik maqomi unga harom va johil turur”, deydi. Bu qirq maqomdan o'ntasi shariatda, o'ntasi tariqatda, o'ntasi ma'rifatda turur va keyingi o'ntasi haqiqatda turur, deb har biriga nisbatan o'zining munosabatini ifodalaydi va ularni bajarish uchun o'nta ulug' yo'lni ko'rsatadi. Ushbu maqomda “darveshlikni qabul qilish” deganda dunyo noz-ne'matlari, uning lazatlaridan kechish lozimligi tushuniladi [4]. Chunki bulardan xolos bo'lmagan kishi nopok, nodon, zulmkor, molparast, mansabparast kabi illatlariga ega bo'lib, o'zini baxtsizlik va g'urbatga ixtiyor etishi, ya'ni molparastlar mol-dunyo uchun bir-birlariga shafqat qilmasdan, nodonlik bilan johillik ko'rsatishlari ham mumkin. Xuddi shu nuqtai nazardan o'quvchi va talabalarda mazkur maqomni singdirish ularda ijobiy insoniy fazilatlarini tarbiyalashda qo'l keladi. Mazkur maqomdan o'quvchilarda qimmatbaho zebu ziynatlarni taqishga, rang-barang jiloli matolardan kiyimkechaklarga, mol-dunyoga o'tkinchi dunyo havaslari nafs balosiga qarshi kurashga foydalanish foydali.

Uchinchi maqomda “har ishga tahammul qilmoq”, ya'ni bu so'zdagi “tahammul qilmoq” tushunchasi “bardosh bermoq”, “sabr-toqat bilan kutmoq” ma'nolarini anglatadi. Bunda o'quvchi va talabalarga har qanday ishga, qiyinchiliklarga bardosh berish lozimligini o'rgatish hamda sabr-toqat qilingan ishning natijasi esa ijobiy yakunlanishini uqtirib borish lozim. Bu bilan o'quvchilar optimistik ruhda tarbiyalanib, ularda bardoshlilik, sabr-toqatlilik kabi xususiyatlar shakllantiriladi.

To'rtinchi maqom “haloli tayyib talab qilmoq” deb nomlangan bo'lib, bunda kishi halol deb hisoblangan narsalardan tanavvul qilishi, o'zini gunoh ishlardan tiyib halol turmush kechirishi, o'zgarar mol-dunyosiga ko'z tikmasligi, dunyoga ishq uyg'otmasligi, halol bilan haromni ajrata olishi, halollik, poklik va adolat kabi xususiyatlarni o'ziga singdirishi lozim.

Beshinchi maqom “ma'rifat qilmoq” deb yuritilib, bunda insonning komillikka erishuvi to'g'risida fikr bildiriladi. Xoja Ahmad Yassaviy Muhammad payg'ambarimizning “ilm egallang, ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda- rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebuziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir” degan hadisiga amal qilgan. Ya'ni bu bilan inson bilimga intilishi, o'qish va o'rganish orqali ushbu o'tkinchi dunyoning yolg'onchi huzurlaridan voz kecha olishligi hamda uni yomon yo'llarga undovchi nafs qopqonidan o'zini xolos qila olishga o'zida kuch-quvvat, iroda to'play olishligi ta'kidlanadi.

Oltinchi maqom “shariat va tariqatni barpo tutmoq” deb belgilanadi. Ya'ni bunda inson musulmonchilikning barcha qonunqoidalarini o'rganib rioya qilishi,

undagi barcha farz qilingan amallarni bajarishi, o`zini gunohlardan saqlashi, man qilingan ishlardan tiyishi, g`araz va yomonliklardan tozalashi, o`ziga berilgan ne`matlar uchun shukronalar qilib yashashi va yolg`iz Allohmagina sig`inishi lozimligi uqtiriladi.

Yettinchi maqom “dunyoni tark qilmoq” deb ko`rsatilib, bunda bu yolg`onchi dunyo lazzatlaridan voz kechish, kamtarona hayot kechirish g`oyalari ilgari suriladi. Shuningdek, insonni baxtsizlikka eltuvchi nafsni yengishga, ta`magirlik va g`arazgo`ylik kabi illatlardan yiroq bo`lishga undaydi. Kamtarona hayot inson ruhini xotirjam qilib, uni tetiklashtiradi.

Sakkizinchi maqom “oxiratni ixtiyor qilmoq” deb nomlangan bo`lib, unda bu o`tkinchi dunyodagi barcha narsalar yolg`onchi noz-ne`matlar ekanligi, oxiratdagi dunyo esa abadiy ekanligi tushuntiriladi. Ya`ni bu dunyoda har birimizga in`om etiladigan mol-dunyo, uy-joy, mashina, martaba, mansab va hatto farzand ham bizga quvonch bag`ishlab, qalbimizni aldab imondan chiqaruvchi vositalardir. Shu sababdan Yassaviy ta`limotida kishining oxirat haqida ko`p o`ylashi, qayg`urishi, ya`ni oxiratni ixtiyor etishi uni abadiy baxt-saodatga eltadi, deb e`tirof etiladi. Bizning ham o`quvchi yoshlarimiz va talabalarimiz qalbida oxirat haqida o`ylashga o`rgatishimiz esa ularni kishilarga, ya`ni ota-onalariga, ustozlariga, opa-singilu aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatli va imon-e`tiqodli qilib tarbiyalashga undaydi.

To`qqizinchi maqomda “vujud maqomini bilmoq” deb ko`rsatiladi. Unda kishi vujudini, tanasini boshqara olishi, uni turli xil ofatlardan saqlashi mumkinligi uqtiriladi. Darhaqiqat, bu otabobalarimiz hayot tajribalarida isbotlangan fikr. Kishiga vaqtda uxlash, uning miya faoliyatini yaxshilashi, nafsga ortiqcha ruju qo`ymasdan, kam yeb-ichishi, unda ichki kasalliklarning oldini olishi, kamtarona-oddiy kiyinish esa uni turli tana kasalliklari asoratidan saqlashi, tilovat va ibodat qilish esa uni ham jismoniy ham gigienik tarbiyalashi mumkin.

O`ninchi maqomda “haqiqat asrorini bilmoq turar” deb belgilangan bo`lib, bunda yuqorida aytib o`tilgan maqomlarning barchasini to`la egallagan kishi yetuk, komil shaxs bo`lib shakllanishi bilan birga. Uning ruhi ham poklanishi bildiriladi. Xuddi shu holatdagina inson Haqqa yetishligi, Alloh bilan bevosita muloqot qilish sharafiga muyassar bo`lishligi uqtiriladi. Tarixiy manbalarda ko`rsatilishicha, mazkur maqomlarga to`la va mukammal amal qilgan ajdodlarimiz orasida ko`plab valiylar, anbiyo- avliyolar yetishib chiqqan.

Xulosa. So`fiylik maqomidagi ushbu tamoyillardan tarbiya sohasida bugungi kunda ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda Xoja Ahmad Yassaviyning “Rasoil”, “Faqirnoma”, “Devoni hikmat” asarlaridagi diniy va dunyoviy ma`naviy va ruhiy poklik bilan ta`minlovchi hikmatlardan foydalanish yoshlarni sog`lom fikrlovchi, ma`naviy pok, kuchli e`tiqod egasi qilib shakillantirish imkonini beradi. Imon-e`tiqodli kishi esa barcha yo`llardan holi bo`lishi, ya`ni u pok, halol, to`g`ri so`z, o`zga moliga, omonatiga xiyonat qilmasligi, qanoatli,



sabr-toqatli, saxovatli, diyonatli va sadoqatlilik kabi sifatlarga ega bo'lishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan bugungi kunda yoshlarning imon-e'tiqodi bilan shug'ullanishimiz foydadan holi bo'lmaydi. Imon-e'tiqodga bog'liq bo'lgan tarixiy manbalardan olingan Yassaviy tariqatiga oid ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash, solishtirish bugungi kun hayotida qo'llash, yoshlarga ibrat va namuna sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xoja Ahmad Yassaviy zikrida buyuk bir ruhoniy poklik olamiga intilish, hayotda mashaqqat chekish, izlanish orqali amalga oshadi, deb ko'rsatadi. Yning asarlari falsafa, pedagogika, mantiq, adabiyot fanlari kabi psixologiya fanining rivojida ham alohida o'rin egallaydi. Uning hikmatidagi har bir so'z yoshlarni ma'naviy pok bo'lishida muhim vosita, ilm manbai bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1990 – 412 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. -T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda O'zbekiston nashriyotlari. 1 – 2 kitoblar. – T.: 1996 – 1999, - 272 b.: -208b.
3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992 – 208 b.
4. Nasaviy (Yevgeniy Yefimovich Berezikov). Xoja Ahmad Yassaviy. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – 15 b.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991 – 256 b.
6. Bebaho ma'naviy meros. – T.: “Qatortol-Kamolot”, 1999. -18 b.
7. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994 – 432 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada: Xoja Ahmad Yassaviyning ta'limotida uning ijodi, ayniqsa insonlarning imon-e'tiqodini, pok, halol, to'g'ri so'z, o'zga moliga, omonatiga hiyonat qilmasligi, qanoatli, sabr-toqatli, saxovatli, diyonatli va sadoqatlilik kabi sifatleri haqida tahlil qilingan. Xoja Ahmad Yassaviy ilmida, aqliy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozonganligi va o'zini o'zgalardan ustun qo'ymasligi, kibru havoga berilmaganligi, aksincha, o'ziga tanqidiy nazar bilan qarab, o'zini va o'zgalarni bilimdonlikka, kamtarlikka chaqirganligi bugungi kun yoshlari uchun ham ibrat namuna ekanligi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье: В учении Ходжи Ахмеда Ясави, его делах, особенностях веры и убеждений людей, чистых, честных, правильных словах, не предательстве чужого имущества, доверии, удовлетворенности, терпении, щедрости, таких качествах, как благочестие и верность. были проанализированы. Ходжа Ахмад Ясави считал, что он в знании и интеллектуальной чистоте, и этим он приобрел большую известность в народе и не ставил себя выше других, не предавался высокомерию, наоборот, смотрел на себя критическим взглядом и хвалил себя и самого себя. Объясняется, что то, что он призывал людей быть знающими и смиренными, является примером для нынешней молодежи.

SUMMARY

In the teachings of Khoja Ahmed Yassavi, his work, especially people's faith and belief, pure, honest, correct words, not betraying other people's property, trust, contented, patient, generous, qualities such as piety and loyalty were analyzed. Khwaja Ahmad Yasavi believed that he was in knowledge and intellectual purity, and with this he gained great fame among the people and did not put himself above others, did not indulge in arrogance, on the contrary, looked at himself with a critical eye and praised himself and himself. It is explained that the fact that he called people to be knowledgeable and humble is an example for today's youth.